

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O'qituvchi: **Abduvaxobov Shaxzod**

Talaba: **Mamasiddiqov Behro'z**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida to'lov balansining davlat tomonidan tartibga solinishi va va iqtisodiyotda tutgan o'rni o'rganilgan va tahlil qilingan. To'lov balansi – bu ma'lum vaqt oralig'ida rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi barcha o'tkazmalarning o'lchovi hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *to'lov balansi, aktiv balans, profitsit, defitsit, hisob stavka, makroiqtisodiy siyosat, o'tkazmalar.*

BALANCE OF PAYMENTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Samarkand Institute of Economics and Service

Teacher: **Abduvakhobov Shakhzod**

Student: **Mamasiddikov Bekhruz**

Abstract: *This article examines and analyzes the state regulation of the balance of payments in the Republic of Uzbekistan and its role in the economy. The balance of payments is a measure of all transfers between residents and non-residents over a period of time.*

Key words: *balance of payments, asset balance, surplus, deficit, discount rate, macroeconomic policy, transfers.*

KIRISH

Har bir to'lov balansining holati bugungi kunda nafaqat mamlakatning xalqaro operatsiyalarini aks ettiruvchi oddiy hujjat, balki ushbu mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasi, uning iqtisodiy-geografik va investitsion imkoniyatlari, oltin-valyuta zaxiralari va mavjud valyuta munosabatlarining qay darajada ekanligi hamda xalqaro raqobatbardoshligi haqida aniq xulosalar shakllantirish imkonini beruvchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. To'lov balansi — bu ma'lum bir vaqt mobaynida bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga to'lovlar ko'rinishidagi pul mablag'lari harakatini aks ettiradigan jadval, ro'yxat. To'lov balansi muayyan muddat davomida mamlakat chet ellarga to'lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga

chet eldan tushgan to'lovlar summolari nisbatini tavsiflaydi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan (import) tovarlar va xizmatlar haqi, xorij investitsiyalari, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarining chet elga pul o'tkazmalari va boshqa kiradi. Chetdan keladigan tushumlar boshqa davlatlar qaytargan qarzar, ularning foizi, xorijdagi korxonalar va tashkilotlardan o'tkazilgan foyda, eksport qilingan tovarlar va xizmatlar haqi, boshqa yurtlik fuqarolar, korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, xalqaro yoki mintaqaviy tashkilotlar o'tkazgan puldan iborat bo'ladi. Chetga berilgan to'lovlarga nisbatan chetdan kelgan to'lovlar ko'p bo'lsa to'lov balansi faol hisoblanadi (to'lov balansi saldosi ijobiy). Bunday holda mamlakatga valyuta ko'proq oqib keladi, uning valyuta fondi o'sadi, aks holda to'lov balansi passiv bo'lib, valyuta chiqib ketadi va valyuta fondi qisqaradi (to'lov balansi saldosi salbiy).

To'lov balansining muhim qismini tovarlar va xizmatlar eksport va importi — savdo balansi tashkil etadi. To'lov balansi bu shunday hujjatki, unda mamlakatning xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan aloqalari natijasida yuzaga keladigan valyuta tushumlari va to'lovlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. To'lov balansi – ma'lum vaqt oralig'ida rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi barcha o'tkazmalarning o'lchovidir.

Mamlakatning ma'lum vaqtdagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan, tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayirboshlash va valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari pirovardida xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlari ifodalanadi. Shuning uchun xam to'lov balansini bir tomondan, chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomondan esa, chetga chiqariladigan barcha to'lovlar ko'rsatilgan hujjatdir deb qarash mumkin. Tushum fakat eksport yordamida ta'minlanishi mumkin. Aksincha, xorijiy tovarlarni va xizmatlarni sotib olish (import) uchun to'lovlar va xorijiy valyuta xarajatlari bilan bog'lik bo'ladi. Bunda tovar deganda ayirboshlanadigan xar qanday narsa tushuniladi, ya'ni, u moddiy ne'mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital.

To'lov balansida barcha iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruhga bo'linadi: joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'lik operatsiyalar. Shunga ko'ra to'lov balansi strukturasini xam ikki qismdan iborat: 1. Joriy operatsiyalar hisobi; 2. Kapital harakati hisobi. Joriy operatsiyalar hisobida mahsulotlar va xizmatlar eksporti «plyus», import esa «minus» ishoralari bilan belgilanadi. Ya'ni, joriy operatsiyalar hisobida ichki mahsulotlar eksporti kredit, aksincha mamlakatga

mahsulotlar olib kelish - import esa debet sifatida ko`rsatiladi. Chunki, mahsulotlar eksporti xorijiy valyuta ishlab topib, mamlakat valyuta zaxirasini boyitsa, import esa mamlakatdan valyuta chiqib ketishiga olib keladi. Bu esa o`z navbatida mamlakat valyuta zaxirasini kamaytiradi.

Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularning farqi tashqi savdo balansining qoldig'i deb yuritiladi.

Makroiqtisodiy modellarda joriy operatsiyalar balansi qoldig'i quyidagicha beriladi: $X - M = X_n = Y - (S + I + G)$;

bu erda: X - eksport; M - import; X_n - sof eksport; S + I + G -YAIMning bir kismi (absorbtsiya)

Investitsiyalash va kreditlash bilan bog'lik operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni, kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi. Mamlakatda ma'lum bir vaqtda moddiy va moliyaviy aktivlarini sotib olish va sotish bilan bog'lik operatsiyalariga kapital harakati hisobi deyiladi. Kapital harakati hisobi balansida korxonalar, yer, uy-joylar, qimmatbaxo qog'ozlar, aksiyalar, xazina majburiyatlari va boshka aktivlarni olish-sotish bilan bog'lik kapitallar oqimi aks ettiriladi. Bu aktivlar sotilsa yoki eksport qilinsa, xorijiy valyuta mamlakatga kiritiladi, ya'ni valyuta tushumi ko`payadi.

Kapital xarajatlari hisobida aktivlar bo'yicha barcha xalqaro operatsiyalar ko`rsatiladi. Kapital xarakati balansi =Aktivlarni sotishdan tushadigan barcha tushumlar - Xorijiy aktivlarni sotib olishga kilingan xarajatlar. Xorijga aktivlarni sotish valyuta zaxirasini ko`paytirsa, sotib olish esa uni kamaytiradi. Shuning uchun kapital harakati balansi barcha operatsiyalardan keladigan sof valyuta tushumlarini ko`rsatadi. Kapital xarakati hisobining ijobiy qoldig'i mamlakatda kapital ko`payishini bildirsa, uning salbiy qoldig'i mamlakatda kapital kamayishini bildiradi.

To'lov balansining davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- to'lov balansiga muvozanatsizlik xos bo'lib, bu holat yoki defitsit yoki haddan tashqari aktiv qoldiq ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu nomutanosiblik valyuta kursi dinamikasiga, kapital oqimiga, iqtisodiyotning holatiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- xo'jalik aloqalari tobora globallashib borayotgan hozirgi davrda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida to'lov balansining roli borgan sari ortib bormoqda. To'lov balansini muvozanatlashtirish vazifasi — davlatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, inflyatsiyani jilovlab turish va ishsizlikni kamaytirish kabi vazifalar bilan bir qatorda e'tirof etilmoqda;

- XX asrning 30-yillarida oltin-deviz standarti joriy qilingandan so'ng, to'lov balansini muvozanatlashtirishning baho mexanizmi ish bermay qo'ydi. Shu sababli ham, to'lov balansini davlat tomonidan ma'lum tadbirlar orqali boshqarilishi maqsadga muvofiq bo'lib qoldi.

Defitsitli to'lov balansiga ega bo'lgan davlatlar aktiv balansga ega bo'lgan o'z hamkorlaridan import bo'yicha cheklovlarni kamaytirish, mazkur mamlakatlarga kapital chiqarilishini rag'batlantirish kabilarni talab qiladi. To'lov balansini muvozanatlashtirish, odatda, bir qancha ichki va tashqi omillarning to'lov balansiga ta'sirini baholash taqozo etiladi. Aktiv balansga ega bo'lgan davlatlar xalqaro hisob-kitoblarga kirishuvchi mamlakatlarda makroiqtisodiy barqarorlikni mavjud bo'lishidan manfaatdor bo'ladi.

To'lov balansida defitsit mavjud bo'lgan davlatlar tomonidan eksportni rag'batlantirish, import qilinayotgan tovarlarni kamaytirishga, xorijiy kapitalni jalb qilishga, kapitalni olib chiqib ketishni chegaralashga qaratilgan quyidagi tadbirlar qo'llaniladi:

- Deflyatsion siyosat. Bu siyosat ichki talabni kamaytirishga yo'naltirilgan holda o'z ichiga byudjet mablag'larini aholi ehtiyojlariga kamroq sarflash, baholarni va ish haqlarini muzlatish kabilarni qamrab oladi. Uning asosiy instrumentlaridan biri bo'lib, moliyaviy va pul-kredit choralari hisoblanadi. Bular byudjet defitsitini kamaytirish, Markaziy bankning hisob stavkalarini o'zgartirishi (diskont siyosati); kredit cheklovlari; pul muassasining o'sib borishiga chegara qo'yish va shu kabi choralardir. Iqtisodiy pasayish, ishsizlikning yuqori ko'rsatkichi va to'la foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari sharoitida deflyatsiya siyosatini qo'llash, ishlab chiqarish va bandlikning yanada pasayishiga olib keladi. Bu esa, aholining turmush darajasiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatib, vaziyatni yumshatish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar qo'llanilmasa, ijtimoiy nizolar keltirib chiqarishi mumkin. To'lov balansi ma'lum bir vaqt mobaynida (chorak, yarim yil, bir yil va h.k.) bir mamlakat va unda ro'yxatdan o'tgan korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralarining boshqa mamlakatlardagi korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralari bilan amalga oshirgan barcha iqtisodiy operatsiyalarini o'zida aks ettiruvchi statistik hisobotdir.

- Tovarlar va xizmatlar eksporti va importi, bir mamlakatning xorijda ishlovchi hamda o'sha davlatda ishlovchi chet ellik ishchilarning daromadlari va xarajatlari, bir mamlakatning tashqi aktivlari va majburiyatlari bo'yicha qo'lga kiritgan yoki to'lab berishi lozim bo'lgan daromadlari, shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalari, grantlar va insonparvarlik yordamlari va boshqa operatsiyalar to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobida aks etadi. Bir

mamlakatdagi korxonaning boshqa bir mamlakat korxonasiga katta miqdorda bag'araz moliyaviy resurs taqdim etishi yoki ixtiyoriy ravishda qarzidan voz kechishi kabi kapital transfertlari hamda yer, tabiiy resurslar, shartnomalar, marketing ishlanmalari kabi ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar savdolari to'lov balansining kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisobida jamlanadi.

Joriy operatsiyalar hamda kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisoblaridagi defitsitlar moliyaviy operatsiyalar hisobi evaziga moliyalashtiriladi. Masalan, joriy operatsiyalar hisobi defitsitining asosiy manbalaridan biri bo'lgan savdo balansi defitsiti (import hajmining eksport hajmidan ortiqaligi) asosan moliyaviy operatsiyalar hisobidagi investitsiyalar va qarzlardan evaziga qoplanadi. Jahon tajribasida to'lov balansi hisoboti asosan Markaziy bank yoki Statistika qo'mitasi tomonidan shakllantiriladi va har chorakda foydalanuvchilarga taqdim qilinadi. To'lov balansini tuzish markaziy iqtisodiy idoralar faoliyatini muvofiqlashtirishni, shuningdek, axborotlarni to'plash va ishlashning mavjud tizimini qayta qurishni taqozo etadi, bu esa ko'p vaqt sarflashni talab qiladi. Davlat dasturi birinchi bosqichda ekspert baholash usullaridan va hisob-kitob ma'lumotlaridan foydalanish asosida to'lov balansini tuzishni nazarda tutadi. Keyinchalik balansni tuzish usuli birlamchi axborotga ko'proq yo'llangan bo'ladi. O'zbekistonning to'lov balansini tuzish ishlari xalqaro moliya tashkilotlarining va Xalqaro valyuta fondining ekspertlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytib o'tish joiz-ki, to'lov balansi mamlakatning dunyoning boshqa davlatlari bilan iqtisodiy operatsiyalarini kompleks o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. U tovarlar, xizmatlar, daromadlar va joriy transfertlarning aylanishini kuzatuvchi joriy hisobni hamda kapital oqimlarini, shu jumladan investitsiyalar va kreditlarni kuzatuvchi kapital va moliyaviy hisobni o'z ichiga oladi. Defitsit tushunchasi mamlakatning importga sarflagan xarajatlari uning eksport va boshqa oqimlardan tushgan daromadlaridan oshib ketganda yuzaga keladi. To'lov balansi va uning tarkibiy qismlarini tushunish mamlakatning iqtisodiy munosabatlari, raqobatbardoshligi va global miqyosdagi moliyaviy holati haqida qimmatli tushunchalar beradi. Bu siyosatchilar va iqtisodchilarga mamlakatning tashqi iqtisodiy kuchli tomonlari, zaif tomonlari va ichki iqtisodiy siyosatga mumkin bo'lgan ta'sirini baholash imkonini beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
2. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). -"Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010. -756 b
3. Sharifxodjaev M.Sh., Srojiddinova Z.X., Tulyaganova N.B. Byudjetnaya politika Respubliki Uzbekistan. Uchebnoe posobie. –T.: TFI, 2001.
4. Davlat moliyasi tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami, 3 jildlik, -T.: O'zbekiston, 2002.
5. Камаев В.Д. Экономическая теория: Краткий курс: учебник/ В.Д.Камаев, М.З.Ильчиков, Т.А.Борисовская. -2-й изд., стер. -2007. -384 с.
6. <https://lex.uz>